

O‘SIMLIKLAR GENETIK RESURLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

SURXONDARYO ILMIY-TAJRIBA STANSIYASI MEVALI

O‘SIMLIKLAR GENOFONDI VA UNI BOYITISH ISTIQBOLLARI

Turakulov Umid Xayitovich,

Turakulov Xait Temirovich

O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi

**ГЕНОФОНД ПЛОДОВЫХ РАСТЕНИЙ СУРХАНДАРИНСКОЙ
НАУЧНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ СТАНЦИИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛСКОГО ИНСТИТУТА ГЕНЕТИЧЕСКИХ
РЕСУРСОВ РАСТЕНИЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ОБОГАЩЕНИЯ**

Туракулов Умид Хайитович,

Туракулов Хаит Темирович

Сурхандаринская научно-экспериментальная станция

научно-исследовательского института генетических ресурсов растений

**THE GENE POOL OF FRUIT PLANTS OF THE SURKHANDARYA
SCIENTIFIC AND EXPERIMENTAL STATION OF THE SCIENTIFIC
RESEARCH INSTITUTE OF PLANT GENETIC RESOURCES AND
PROSPECTS FOR THEIR ENRICHMENT**

Turakulov Umid Khayitovich,

Turakulov Khait Temirovich

Surkhandarya Scientific and Experimental Station of the

Research Institute of Plant Genetic Resources

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston o‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi mevali o‘simliklar genofondining bugungi ahvoli keltirilgan. Bugungi kunga qadar stansiya kolleksiyasida to‘plangan mevali o‘simliklar turlari va ularning soni to‘g‘risida ma’lumot berilgan. So‘ngi yillarda genofondni boyitish borasida amalga oshirilgan ishlar va kolleksiyaga kiritilgan



navlar yoritilgan. Genofondni saqlab turish va uni boyitish hamda undan foydalanish istiqbollari tavsiflangan.

Kalit soʻzlar: genofond, genetik resurs, mevali oʻsimliklar, kolleksiya, koʻchatzor, tur, nav, koʻchat.

Аннотация: В данной статье приведены современное состояние генофонда плодовых растений Сурхандаринской научно-экспериментальной станции научно-исследовательского института генетических ресурсов растений Узбекистана. Даны сведения о количестве видов плодовых растений, собранных в коллекции. Описаны мероприятия, осуществленных по обогащению генофонда и новые сорта плодовых культур, добавленных в генофонд в последние годы. Даны сведения по сохранению, обогащению и использованию генофонда.

Ключевые слова: генофонд, генетические ресурсы, плодовые растения, коллекция, питомник, вид, сорт, саженцы.

Abstract. This article presents the current state of the gene pool of fruit plants of the Surkhandarya Scientific Experimental Station of the Research Institute of Plant Genetic Resources of Uzbekistan. Information is given on the number of species of fruit plants collected in the collection. The activities carried out to enrich the gene pool and new varieties of fruit crops added to the gene pool in recent years are described. Information on the conservation, enrichment and use of the gene pool is given.

Key words: gene pool, genetic resources, fruit plants, collection, nursery, species, variety, seedlings.

Maʼlumki, mevalar oʻzining ajoyib taʼmi, uglevodlar, biologik faol moddalar va minerallar manbai ekanligi va boshqa tomonlari bilan oziq-ovqat mahsulotlari ichida alohida oʻrin egallaydi. Soʻngi yillarda hukumatimiz tomonidan ushbu qimmatli



meva-sabzavotlarning ishlab chiqarilishi hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda PQ-4549 son «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi, 2021 yil 15 dekabrda PQ-52 son «Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va koopeyuratsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlarida respublikamizda meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, uning eksport salohiyatini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida ta'kidlangan [1, 2].

Har qanday mintaqada mevalilik sohasini rivojlantirishda genofondning ahamiyati beqiyosdir. Mevali o'simliklarning muayyan tuproq iqlimga mos navlarni tanlash, yangi nav va duragaylarni chiqarishda genofondan foydalanishning ahamiyati A.Amanov va boshqalar [3], O.Yu.Emelyanova, A.N.Firsov, L.I. Masalova [4], A.V.Смыков [5] va boshqlarning ishlarida atroflicha yoritilgan.


O'zbekistonning janubiy mintaqasi mevali o'simliklar genofondini boyitish va uni saqlashda O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi muhim strategik ag'amiyatga ega muassasa hisoblanadi. Negaki, Surxondaryo viloyati o'zining tuproq-iqlim sharoitlari bilan respublikaning boshqa viloyatlaridan alohida ajralib turadi. Iqlimi – janubda quruq cho'ldan shimolda (Uzun shahri) subtropikkacha o'zgaradi. Yanvar oyining o'rtacha harorati +3 °S, iyul oyida +30 °C ni tashkil etadi. Yillik yog'ingarchilik miqdori tekislik yerlarida 130 mm dan 360 mm gacha, tog'oldi hududlarda 440 mm dan 620 mm gacha o'zgaradi.

Viloyatda quruq subtropik hududlarning mavjudligi, bahorning erta boshlanishi va vegetatsiya davrining uzoq davom etishi ushbu hududda subtropik mevalilikni rivojlantirish, issiqxona mevaliligini keng yo'lga qo'yish, juda ertagi mevalarni yetishtirish hisobiga respublika aholisini erta muddatlarda arzon tannarxli meva mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi.

Viloyat urug'li, danakli va rezavor mevalarni yetishtirish bo'yicha ham katta imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Ushbu mintaqada o'rik, olma, anor, gilos, uzum va bodom kabi mevali o'simliklar katta maydonlarda yetishtiriladi.



Alohida ta'kidlash joizki, respublika aholisini erta muddatlarda arzon tannarxli meva mahsulotlari bilan ta'minlash bilan bir qatorda, eksport (xususan, juda ertagi meva mahsulotlari) salohiyatini oshirishda Surxondaryo viloyatining o'rni beqiyosdir. Eksport salohiyati esa o'z navbatida xaridorgir va tovarbop meva navlarini yetishtirishni taqozo etadi. Shu bois O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasida mevali o'simliklar genofondini boyitish, mavjud navlarni saqlab qolish, yangi istiqbolli navlarni introduksiya qilish ham seleksion navlarni chiqarish borasida muntazam ravishda ilmiy-tadqiqotlar va amaliy ishlar olib boriladi. Ko'p yillik olib borilgan kolleksion ishlar natijasida bugungi kunda stansiyada mevali o'simliklar va uzumning qariyb 1735 xil, shundan 720 xil mevali o'simliklar navi to'plangan va ularning ko'chatlarini yetishtirish hamda genofondini saqlab turish yo'lga qo'yilgan (rasm).



Rasm. O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasida to'plangan mevali o'simliklar navlari miqdori (2022 yil)

Rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, stansiyada eng ko'p to'plangan navlar o'rik va olma ulshiga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, viloyatda o'rikning juda ertapishar va eksportbop navlarini yetishtirishni kengaytirishda stansiyaning ahamiyati

yuqoridir. Bugungi kunda stansiyada ushbu ekinlarning istiqbolli navlaridan yiliga 2000 donadan ko'chatini tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Genofondni yangi istiqbolli navlar bilan muntazam boyitib borish va ularni o'rganish stansiyada yo'lga qo'yilgan muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Binobarin, joriy 2022 yilda genofond anorning 11 ta, olmaning 1 ta va bodomning 2 ta navi bilan boyitildi.

Alohida ta'kidlash joizki, Surxondaryo viloyatining tuproq-iqlim sharoitlari uzum yetishtirish uchun ayniqsa maqbul hisoblanadi. Viloyatning barcha viloyatlarida uzumning keng assortimentdagi navlarini yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Mahalliy aholi juda qadimdan uzum yetishtirish bilan shug'ullanib keladi. Bugungi kunda uning xo'raki Oq Xusayni, Rizamat, Pushti Toyfi, mayizbop Sultoni (Jaus), Kattaqo'rg'on, Qora janjal kabi navlari aholi tomorqalarida va fermer xo'jaliklarida juda katta maydonlarda yetishtiriladi.

Shunga muvofiq, viloyatning uzum sortmentini boyitish va uning genofondini saqlash ham stansiyada muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda stansiyada to'plangan uzum kolleksiyasidagi uzum nav-namunalari soni 1035 namunani tashkil etadi (jadval)

Jadval-1

O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasidagi mavjud uzum navlari to'g'risida ma'lumot

Нав оlib kelingan davlat	Olib kelingan nav soni	Nav olib kelingan davlat	Olib kelingan nav soni	Nav olib kelingan davlat	Olib kelingan nav soni
Tojikiston	200	Qirg'iziston	3	Avstriya	5
Armaniston	35	Germaniya	3	Portugaliya	6
Fransiya	49	Eron	13	Turkmaniston	15
Turkiya	6	Moldaviya 8		Azarbayjon	19
Italiya	24	Vengriya	12	AQSh	1
Rossiya	24	Falastin	2	Iroq	1

Kolleksiyada shuningdek Ispaniya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlardan keltirilgan nav-namunalar ham o'rganilmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan mevli o'simliklar va uzum genofondidan tashqari, stansiyada rezavor mevalar genofondini tashkil etish va uni boyitish borasida ham amaliy ishlar boshlab yuborildi. Joriy yildan boshlab stansiya genofondiga oltinsimon qorag'atning 2 ta va maymunjonning 2 ta navi olib kelindi. Bugungi kunda ushbu o'simliklarning viloyat tuproq-iqlimi sharoitida o'sishi va rivojlanishining morfo-biologik xususiyatlari o'rganilmoqda hamda ko'paytirish ustida amaliy ishlar bajarilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. PQ-4549 son «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». – Toshkent, 2019 yil 11 dekabr. <http://www.Lex.UZ>.
2. Mirziyoyev Sh.M. PQ-52 son «Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida». – Toshkent, 2021 yil 15 dekabr. <http://www.Lex.UZ>.
3. Amanov A., Abdullaev F., Baymetov K.I., Alikulov S.M. – Mirovoy genofond selskoxozyaystvennix kultur: Soxranenie, obogashenie i ispolzovanie [Global Genepool of Agricultural Crops: Conservation, Enrichment and Use]. 2020.
4. Yemelyanova O.Yu., Firsov A.N., Masalova L.I. Genofond plodovix i yagodnix rasteniy dendrariya VNIISPK. // Seleksiya i sortorazvedenie sadovyx kultur. – 2019. – № 1. – T.6. – S. 47-51.
5. Smikov A.V. Genofond .jnix plodovix kultur i yego ispolzovanie. // Sortovivechnnya ta oxorona prav na sorta roslin. – № 1. – 2012. – S. 7-10.